

**Ergashev Anvar Karimovich**

Buxoro davlat pedagogika instituti, Tabiiy fanlar kafedrası assistenti

**KOGON TUMAN AHOLISININING TARKIBI VA DINAMIKASI**  
**СОСТАВ И ДИНАМИКА ЧИСЛЕННОСТИ НАСЕЛЕНИЯ**  
**КОГАНСКОГО РАЙОНА**  
**COMPOSITION AND DYNAMICS OF THE POPULATION OF THE**  
**KAGAN DISTRICT**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tadqiqot obyektı sifatida Buxoro viloyatining tumanlaridan biri Kogon tuman aholisi olingan. Maqolada tuman aholi soni, aholi zichligi va ularning hudud bo'yicha tarqalishi, aholining milliy tarkibi, yosh hamda jinsiy tarkiblari aniqlangan. Aholi tarkibini Buxoro viloyatining boshqa tumanlari bilan ham taqqoslangan.

**Аннотация.** В данной статье в качестве объекта исследования взято население одного из районов Бухарской области-Каганского района. В статье определены численность населения района, плотность населения и их распределение по территории, национальный состав населения, возрастной и половой состав. Состав населения сравнивали и с другими районами Бухарской области.

**Annotation.** This article takes the population of Kogon district, one of the districts of Bukhara region, as the object of the study. The article identifies the district's population, population density and their distribution by Region, national population composition, age and sex composition. The composition of the population was also compared with other districts of Bukhara region.

**Kalit so'zlar:** Kogon tuman, aholi, aholi zichligi, yosh tarkib, jinsiy tarkib, milliy tarkib.

**Ключевые слова:** Коган район, население, плотность населения, возрастной состав, половой состав, национальный состав.

**Keywords:** Kogon district, population, population density, young content, sexual content, National Content.

Kogon Buxoro viloyatining tumalaridan biri bo'lib, maydoni 0,5 ming km<sup>2</sup>. Tuman viloyat maydonining (40 220 km<sup>2</sup>) 1,2 % ni tashkil qiladi. Maydonining kattaligiga ko'ra viloyatning 11 ta tumani ichida 10-o'rinda (faqat Vobkent tumanidan katta) turadi.

1926-yil 29-sentabrda O'zbekiston SSR hududi qaytadan ma'muriy birliklarga bo'linadi hamda 7 ta viloyat va 23 ta uyezd o'rnida 10 ta okrug tashkil qilinadi. Buxoro okrugida Bahouddin (tuman markazi – Yangi Buxoro (Kogon)) tumani tashkil qilinadi. O'shanda Bahouddin tumani tarkibiga Kogon, Tutikunda, O'bacho'li, Ko'lishag'alon, Frunze qishloq kengashlari va Qorovulbozor posyolkasi kiritiladi. Keyinchalik sovet hokimiyati va kommunistik mafkura tomonidan Bahouddin tumanining nomi Yangi Buxoro, 1935-yildan Kogon

tumani deb o'zgartiriladi. 1963-yilda tuman tugatilib, 1964-yilda u qayta tashkil etiladi[2].

Kogon tuman aholisining tarkib topishi uzoq tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Tumanda jami 84,6 ming kishi (2024-yil 1- yanvar holati bo'yicha) istiqomat qiladi. Aholi soni bo'yicha Buxoro viloyati tumanlari ichida 10-o'rinda turadi (1-jadval). Tuman aholisi o'rtacha har yili 7,6% o'sib bormoqda.


*1-jadval*

**Buxoro viloyati tumanlarida aholi soni (ming kishi hisobida)**

T/r	Tumanlar	Yillar			
		2013	2017	2021	2024
1	G'ijduvon tumani	275,0	295,0	307,2	322,5
2	Shofirkon tumani	158,0	169,2	179,0	186,5
3	Jondor tumani	152,2	164,8	176,5	185,5
4	Qorako'l tumani	145,3	155,7	165,1	171,8
5	Buxoro tumani	143,8	156,4	168,9	178,4
6	Romitan tumani	124,8	133,8	143,8	151,4
7	<b>Kogon tumani</b>	<b>67,7</b>	72,5	79,4	<b>84,6</b>
8	Peshku tumani	107,5	115,9	124,6	131,2
9	Vobkent tumani	123,5	132,6	141,3	148,7
10	Olot tumani	87,8	94,4	100,1	104,3
11	Qorovulbozor tum	15,9	17,4	18,5	19,9

*Jadval Buxoro viloyat statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi*


Tumanning aholisi hudud bo'ylab notekis taqsimlangan. Aholi asosan markaziy hududlarda zich o'rinishgan. Tumanning janubiy tomonlarida esa ancha siyrak o'rinishgan. Aholining o'rtacha zichligi  $1\text{ km}^2$ ga 169,2 kishiga to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan (50,8 kishi) uch marta yuqori. Kogon tuman aholisining zichligini viloyatning boshqa tumanlari bilan solishtirsak, quyidagi holatning guvohi bo'lamiz(2023-yil 1-iyul). Aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Buxoro shahrida **4 165,7** kishi, Kogon shahrida **3 210,0** kishi, Vobkent tumanida **506,9** kishi, Kogon tumanida **167,0** kishini, Buxoro tumanida **133,5** kishi tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Qorovulbozor tumanida **9,0** kishi, Peshku tumanida **14,9** kishi, Qorako'l tumanida **19,6** kishi, Olot tumanida **32,1** kishi, Jondor tumanida **35,5** kishi, Shofirkon tumanida **49,8** kishini tashkil etgan. Aholi zichligi bo'yicha Kogon tumani viloyat tumanlari orasida Vobkent tumanidan so'ng 2 – o'rinda turadi.



**1-rasm. Buxoro viloyati bo'yicha aholi zichligi.**

2023-yil 1-iyul holatiga. 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi

Tuman aholisining milliy tarkibiga nazar soladigan bo'lsak, jami aholining 92 % ni o'zbeklar, 3 % ni tojiklar, 2 % turkmanlar va qolgan 3% ni qozoqlar, ruslar, tatarlar, eroniylar va boshqa millat vakillari tashkil qiladi (2-a rasm).



**2-rasm. Kogon tumani (a) va shahrining (b) milliy tarkibi**

*Kogon tuman va shahar statistik ma'lumotlari asosida tuzildi*

Tuman markazida Kogon shahri anklav shaklda joylashgani uchun shaharning ham milliy tarkibiga to'xtalamiz[3]. Kogon shahri misolida aholining

milliy tarkibini ko‘radigan bo‘lsak, shaharda 75.1 % aholi o‘zbek millati, 10,94 % aholi rus millati, 7,54 % ni tojik millati tashkil etadi. Kogon shahri va tumani aholisining milliy tarkibini taqqoslaganda tuman hududida o‘zbek millati ko‘proq kishini tashkil etadi. Shahar hududida esa nisbatan kamchilikni tashkil etadi (75,1 %), rus va tojik millatlari umumiy aholining 20 % ga yaqinini tashkil etadi (2-b rasm). Tumanda boshqa millat vakillarining ko‘pligining asosiy sabablari Buxoro viloyatining transport tuguni aynan shu yerda joylashgan. Temiryo‘l sohasidagi mutaxassislarning aksariyati dastlab xorijdan olib kelingan. Shaharda temiryo‘l bilan birga ko‘plab boshqa turdagi sanoat korxonalari ham tashkil etiladi, o‘z-o‘zidan ushbu korxonalarining asosiy ish yurutuvchi muhandislari ham chet eldan olib kelinadi. Hozirgi kunda Kogon shahrida “Ozarbayjon madaniyat uyi”, “Bratskiy Magila” rus cherkovi kabilarning mavjudligi o‘zbek va boshqa millat vakillarining og‘a-ini bo‘lib yashayotganlaridan dalolat beradi (2-jadval).


2-jadval

**Kogon shahri aholisining milliy tarkibi:**

T/R	Millatlar	2018 yil 1 yanvar xolatida (kishi)	Foiz xisobida
1.	O‘zbeklar	45143	75.1
2	Qoraqalpoq	20	0.03
3	Ruslar	6583	10.94
4	Ukrainlar	472	0.78
5	Kozoklar	225	0.37
6.	Tojiklar	4542	7.54
7	Tatarlar	1201	1.99
8	Ozarboyjonlar	513	0.85
9	Koreys	66	0.1
10	Beloruslar	145	0.24
11	Turkmanlar	190	0.31
12	Qirg‘iz	12	0.01
13	Boshkalar:	1052	1.74
	<b>J A M I :</b>	<b>60164</b>	<b>100.0</b>


*Ma'lumotlar oldingi yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxati yakunlariga nisbatan olingan*

Aholi tarkibiga jins va yosh jihatdan yondashish katta ahamiyatga ega. Chunki aholini va inson omilini takror ishlab chiqarish xuddi ana shu jihatlarga bog'liq. Kogon tumani aholisining jinsiy tarkibida jinslar orasida katta tafovut yo'q. Jami aholining 49,7 % (42 300 kishi) erkaklar, 50,3 % (42 700 kishi) ayollar tashkil etadi (2024-yil 1-aprel). Bu ma'lumotdan ko'rinib turibdiki Kogon tumanida ayollar erkaklarga nisbatan ko'pchilikni tashkil etadi (3-rasm).




**3-rasm. Kogon tuman aholisining jinsiy tarkibi**

Tumanda aholi tabiiy ko'payish hisobiga ko'paymoqda. Tumanda 2023-yil ma'lumoti bo'yicha, 2083 ming tug'ilish, 333 o'lim qayd qilingan bo'lib, tabiiy ko'payish esa yiliga 1750 kishiga to'g'ri keladi (4-rasm). Bunday tabiiy ko'payish ancha yuqori hisoblanadi. Masalan, tuman aholisi 2021-yilda 79,4 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 84,6 ming kishiga yetdi.



#### 4-rasm. Kogon tumani aholisining tug'ilish va o'lim ko'rsatkichi


Tumanning migratsion holati musbat ko'rsatkichga ega. Tumanga bir yil davomida kelganlar soni 820 kishi, ketganlar soni esa 618 kishini tashkil etadi. Migratsiya saldosini ko'rsatkichi 202 kishiga teng (5-rasm). Tuman aholisining bir yil davomidagi umumiy ko'payishini ko'radigan bo'lsak quyidagicha ko'rsatkich keladi.  $1750+202=1952$ . Demak 2023-yilda tuman aholisi deyarli ikki ming kishiga ko'paygan.



#### 5-rasm. Kogon tumanining migratsiya darajasi

Tuman aholisining yosh tarkibini ko'radigan bo'lsak, aholisining (73 300 kishi) 19 454 nafari 14 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil qiladi. Bu jami aholining 26% ni tashkil qiladi. Tumanda mehnat resurslari esa 44 000 nafarni tashkil etadi (60%). Qolgan aholi esa nafaqa va pensiya yoshidagi aholi hisoblanadi (6-a rasm).

Kogon shahrida esa 14 yoshgacha bo'lgan yoshlar shahar jami aholisining 19 840 nafarini tashkil etadi. Bu jami aholining (60 164 kishi) 34% ga teng. Shahar aholisining mehnat resursi esa 35 121 kishini tashkil etadi bu jami aholining 58% ga demakdir (6-b rasm). Kogon tumani va shahrida mehnat resurslari jami aholining yarmidan ortiqrog'ini tashkil etadi. Bundan ko'rinib turibdiki kelgusida xo'jalik sohalarini joylashtirishda ko'p mehnat talab korxonalarini qursa bo'ladi.



6-rasm. Kogon tumani (a) va shahri (b) aholisining yosh tarkibi

Kogon tumani jami aholisining 60 %i (43980 kishi) mehnatga layoqatli aholi tashkil qiladi. Xalq xo‘jaligi tarmoqlarida bandlik har xil bo‘lib, bu talab va ehtiyojdan kelib chiqadi. Tumanning iqtisodiyot tarmoqlarida band bo‘lganlar soni 34,4 ming kishi bo‘lib, jami aholining 47 % ga teng.

Iqtisodiyotda band aholining teng yarmi sanoat va qishloq xo‘jaligida band. Bunda tumanga xos jihatlardan biri sanoatda band aholining qishloq xo‘jaligida band aholidan ustunligidir. Bu tumanda sanoat korxonalarining nisbatan ko‘pligi va yirikligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari Kogon shahrining transport tuguni ekanligi tuman aholisi tarkibida transportda band aholining umumiy bandlikning yuqori pog‘onalarida bo‘lishini taminlagan.

Olingan statistik ma‘lumotlarga ko‘ra uy-joy kommunal xo‘jaligi va maishiy xizmatda band aholi ko‘rsatilmagan. Tuman aholisining iqtisodiyotda bandligi ming kishi hisobida va foizda 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

**Kogon tumanining iqtisodiyotda band aholisi**

<b>Iqtisodiyot tarmoqlari</b>	<b>Ming kishi</b>	<b>% da</b>
Sanoatda	9,3	27
Qishloq xo‘jaligida	7,9	23
Savdo, umumiy ovqatlanish moddiy ta‘minot, tayyorlov korxonalarida	5,9	17,1
Boshqa soha va tarmoqlarda	3,78	11
Qurilishda	2,9	8,4
Xalq ta‘limida	2,5	7,2
Sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta‘minot	1,0	3
Transportda	0,7	2
Boshqaruv organlarida	0,3	0,8
Aloqada	0,07	0,2
Madaniyat va sa‘nat	0,04	0,1
Sug‘urta, moliya, va nafaqa jami	0,01	0,02
Uy-joy kommunal xo‘jaligi, maishiy xizmat	0	0
<b>Jami</b>	<b>34,4</b>	<b>100</b>

*Jadval Kogon tuman statistika bo‘limi ma‘lumotlari asosida tuzildi*

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki iqtisodiyotda band aholining asosiy qismi sanoat, qishloq xo‘jaligi, savdo, umumiy ovqatlanish, moddiy ta‘minot, tayyorlov korxonalarida band. Madaniyat va san‘at hamda sug‘urta-moliya tizimida bu ko‘rsatkichlar ancha past.

Kogon tumani mehnat resurslarining taqsimlanishi bo'yicha viloyatda yetakchilardan hisoblanadi. Bu borada ko'rsatkich ming kishiga 150 kishidan ortiq. Iqtisodiy faol aholi 67,8 ming kishini, iqtisodiy nafaol aholi 16,9 ming kishini tashkil etadi. Viloyat bo'yicha mehnat resurslarining taqsimlanishida tumanning salmog'i 8,3 % ni tashkil etadi. Bu borada viloyatda 6-o'rinda turadi[5].

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Ражабов Қ., Жамолова Д. Когон тумани тарихи. Т.:, "Tafakkur" нашриёти 2015. – 48 б.
2. Бухоро viloyati siyosiy-ma'muriy xaritasi. O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasi. – Toshkent, 2022
3. O'lkashunoslik atlas (Buxoro viloyati). O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasi. – Toshkent, 2014
4. Солиев А. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси. Т.:, "Университет", 2014. –404 б.
5. Ergashev Anvar Karimovich. Kogon tuman qishloq xo'jaligining geografik jihatlari. THEORETICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES. International scientific-online conference. 2023.
6. <https://www.buxstat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>